

**KORXONALARING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI
TA'MINLASH ZARURIYATI**

Muxiddinov Djaxongir Murodulloyevich¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi professori

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 06.05.2025

Revised: 07.05.2025

Accepted: 08.05.2025

Ushbu maqolada korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha nazariy va amaliy asoslari o'rganib chiqildi hamda ulardan kelib chiqqan holda xulosalar va ilmiy-amaliy takliflar shakllantirildi.

KALIT SO'ZLAR:

*xavfsizlik, risk,
tavakalchilik, barqarorlik,
moliya, iqtisodiy
xavfsizlik, moliyaviy
xavfsizlik, indikativ
ko'rsatkich.*

KIRISH. Har qanday korxonaning muvaffaqiyati va uzoq muddatli rivojlanishi uning moliyaviy barqarorligiga bevosita bog'liqdir. Moliyaviy barqarorlik – bu nafaqat korxonaning o'z faoliyatini samarali tashkil etishi va ishlab chiqarish jarayonlarini muvaffaqiyatli boshqarishi, balki uning bozor sharoitlariga moslashishi, investorlar va foydalanuvchilar bilan ishonchli aloqalar o'rnatishi, shuningdek, raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun zarur bo'lgan asosiy omildir. Moliya sohasida barqarorlik ta'minlanishi, birinchi navbatda, korxonaning barcha moliyaviy resurslarini va ularni boshqarish tizimini to'g'ri tashkil etishni taqozo etadi. Kompaniya o'zining ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etib, daromad va xarajatlarni muvozanatlash, kapitalni oqilona taqsimlash, moliyaviy majburiyatlarni to'liq va o'z vaqtida bajarish orqali moliyaviy barqarorlikka erishadi. Bunda, eng muhimi, bozor sharoitlaridagi o'zgarishlarga moslashish va kompaniya

tomonidan qabul qilingan moliyaviy qarorlarning natijasini oldindan ko'ra olishdir. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan boshqa muhim omillar esa, kompaniyaning risklarni boshqarish qobiliyati, likvidlikni saqlash, xarajatlarni samarali nazorat qilish va daromadlarni oshirishga qaratilgan strategiyalarni amalga oshirishga asoslanadi.

Korxonaning moliyaviy barqarorligi uning o'z faoliyatini qanday tashkil etishiga, qanday texnologiyalarni joriy etishiga va qanday marketing strategiyalarini amalga oshirishiga bevosita ta'sir qiladi. Har qanday korxona o'z faoliyatini moliyaviy barqarorlikka asoslashni xohlaganida, ishlab chiqarish jarayonlarining yuqori samaradorligini ta'minlash, resurslarni optimal ravishda taqsimlash va barcha iqtisodiy va moliyaviy xavflarni minimallashtirishga alohida e'tibor qaratadi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, marketing faoliyatini kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va ularga sarmoya kiritish orqali korxona o'zining raqobatbardoshligini saqlab qolishi mumkin. Bunday barqarorlikni ta'minlashda, albatta, yuqori malakali menejment va samarali boshqaruv tizimi zarur, chunki bular kompaniyaning umumiy moliyaviy holatini to'liq va aniq nazorat qilish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti taraqqiyotining hozirgi bosqichida korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashning va uni oshirib borishning shunday modeli yaratilishi lozimki, u nafaqat korxona moliyasini sog'lomlashtirishni va uning asoslarini mustahkamlashni, balki shu bilan birga istiqbolda korxonaning raqobat ustunliklarini mustahkamlashni hamda uning bozor qiymatini ham oshirishni ta'minlasin.

Dissertatsion tadqiqotimiz ikkinchi bobi korxonalarning moliyaviy barqarorligini baholash va tahlil qilishning nazariy asoslarini o'rghanishga bag'ishlanadi. Ushbu maqsadda ishning mazkur qismida quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi:

O'zbekiston Respublikasida korxonalarning rivojlanish tendensiyalari va korxona moliyasining xususiyatlari;

korxona moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari;

korxona moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar;

korxona moliyaviy barqarorligini baholash va tahlil qilish usullari.

O'zbekiston Respublikasida korxonalarning rivojlanish tendensiyalari va korxonalar moliyasining xususiyatlarini yoritish uchun izlanishda ma'lum mantiqiy ketma-ketlikka roya etishni lozim topdik: dastlab korxona moliyasining mohiyati, tarkibini tasniflash mezonlari nazariy talqin etiladi, so'ngra mamlakatimizda korxonalar rivojlanish

tendensiyalari o‘rganiladi va iqtisodiy sistemologiya qoidalariga asoslanib “Korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash mazmuni”ni tizimli tarzda ilmiy idrok etishning asoslari yoritiladi, uning zaruriy elementlari ilmiy-metodologik sharhi beriladi.

Iqtisodiyot modernizatsiyasi sharoitidagi sog‘lom raqobat muhitida turli mulk va xo‘jalik yuritish shakllarining keng taraqqiyoti ular moliyasini ishlab chiqarish samaradorligini rag‘batlantirish maqsadlarida samarali boshqarishning muhim, dolzarb muammo ekanligini isbotlamoqda.

Korxonalar moliyaviy faoliyatini tashkil etishning umumnazariy masalalari qator iqtisodchi-olimlar, jumladan M.Y.Alekseev, B.I.Alyoxin, A.Allaxverdyan, I.T.Balabanov, V.I.Bukato, M.V.Grachev, J.R.Zaynalov, M.V.Romanovskiy, O.O.Olimjonov, T.S.Malikov, D.S.Molyakov, R.G.Mannapov, Q.Yaxyoev, H.Sobirov, S.Elmirzaev, B.Toshmurodova, va boshqalar ishlarida ko‘rib o‘tilgan. Shunga qaramay, korxonalar moliyaviy mexanizmini tashkil etishga oid sobiq ittifoq davridagi ko‘pchilik qarashlar hozirgi zamon bozor munosabatlari sharoitida jiddiy aniqlashtirishni, to‘ldirishni va ayrim holatlarda esa yangi tarixiy haqiqat nuqtai-nazaridan qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida korxonalar moliyaviy munosabatlarining mazmunigina emas, balki ularning vazifalari ham tub o‘zgarishlarga duch keldi. Shu munosabat bilan ishning mazkur qismida biz O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan shiddatli islohotlar sharoitida korxonalarning moliyaviy munosabatlarini tashkil etishning asosiy vazifalarini kompleks holda ko‘rib chiqishga harakat qildik.

Bizning fikrimizcha, “korxonalar moliyasi” tushunchasini tor va keng ma’noda ifodalash mumkin. Tor ma’noda korxonalar moliyasi alohida olingan korxona moliyaviy munosabatlaridan iborat.

Keng ma’noda “korxonalar moliyaviy munosabatlari” tushunchasi iqtisodiyotning keng tarmoqlarida faoliyat ko‘rsatayotgan, bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan korxonalarining moliyaviy faoliyatini ifodalaydi.

Mazkur tushunchaning keng ma’nosи uni tor ma’noda tushunishni to‘la tarzda o‘z ichiga oladi.

Shu asosda korxonalar moliyasini korxonalar va iqtisodiyot tarmoqlari moliyasining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etish mumkin. O‘z mohiyatiga ko‘ra, ular davlat tomonidan tartibga solib turiladigan pul munosabatlari bo‘lib, mazkur munosabatlar korxonalarining hududiy va umum davlat extiyojlari, fondlari va moliyaviy resurslarining tashkil etilishi, taqsimlanishi va ishlatalishi jarayonida vujudga keladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, moliyaviy faoliyat tushunchasining asosini tashkil etuvchi

moliyaviy munosabatlar tarkibining yoritilishi, korxonalar moliyasini samarali boshqarish zarurligi g‘oyasini rivojlantiradi va mazkur masala yuzasidan to‘liq tasavvur yaratishga imkon beradi. Boshqa so‘z bilan aytganda, bu yerda muhim masala korxonalar moliyaviy munosabatlari tarkibini aniqlashdadir. Bozor munosabatlarining rivojlanishi, turli mulk va xo‘jalik yuritish shakllariga asoslangan tadbirkorlikning keng taraqqiyoti sharoitida vazifalar ijrosini ta’minlashda mazkur muammo yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu narsa aniq tushunarliki, korxonalar moliyasini tashkil etuvchi iqtisodiy munosabatlarning mazmuni haqida tushunchaga ega bo‘lmay turib korxonalarda moliyaviy barqarorlikni oshirish masalalari haqida fikr yuritib bo‘lmaydi. Shu munosabat bilan ta’kidlash lozimki, oxirgi vaqtida matbuotda, hatto maxsus iqtisodiy adabiyotlarda ham korxonalar taraqqiyotining moliyaviy masalarini umumiy tarzda talqin qilish uchramoqda.

Bizning fikrimizcha, korxonalar moliyaviy munosabatlari tarkibiga takror ishlab chiqarish qatnashchilari o‘rtasida vujudga keladigan quyidagi pul munosabatlari kiradi:

1. O‘zbekiston Respublikasidagi korxonalar tizimida ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish shakllari o‘rtasida turli pul fondlari va daromadlarning tashkil topishi, taqsimlanishi va ishlatilishi yuzasidan munosabatlar: korxonalar ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishini ta’minlash va takror ishlab chiqarishdagi munosabatlar; korxona va uning xodimlari o‘rtasidagi mehnatga haq to‘lash fondi shakllanishi, mukofot va rag‘batlantirish fondlarini tashkil etish, ishlatish jarayonidagi munosabatlar hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish harajatlarini moliyalashtirish uchun qimmatli qog‘ozlar chiqarish bilan bog‘liq operatsiyalar.

2. Korxonalar va boshqa korxonalar o‘rtasidagi munosabatlar: markazlashgan pul fondlarining tashkil etilishi va ishlatilishi jarayonidagi pul munosabatlari; kapital qo‘yilmalar, kapital ta’mirlashni moliyalashtirish foydaning qayta taqsimlanishi va boshqa moliyaviy resurslarning shakllanishi va ishlatilishi bilan bog‘liq munosabatlar.

3. Korxonalar va davlat o‘rtasidagi munosabatlar:

davlat va tegishli idoralar tomonidan moliyaviy masalalarni tartibga solish jarayonidagi;

davlat byudjetiga to‘lovlar va soliqlarni, sug‘urta badallarini to‘lashdagi;

kapital qo‘yimalarni moliyalashtirish, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish, davlat dasturi bo‘yicha sohaga berilayotgan kreditlarni olish jarayonidagi;

korxonaga davlat ahamiyatidagi alohida loyiha bo‘yicha qonunda ko‘rsatilgan maqsadlarga dotatsiya (yoki subsidiya) berishdagi va h.k.

4. Korxonalar va tijorat banklari o‘rtasidagi munosabatlar.

Korxonalar bilan korxonalar o‘rtasida, korxonalar bilan aholi o‘rtasida oldi-sotdi jarayonida hamda qimmatli qog‘ozlar harakati bilan bog‘liq munosabatlar. Bu munosabatlar qatoriga shu bilan birga korxonalar o‘rtasida vujudga keladigan jarimalar, ustama to‘lovlar ham kiradi.

1. Korxona va kasaba uyushmalari o‘rtasidagi munosabatlar: ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar qilish jarayonidagi; korxona tomonidan yo‘llanmalar sotib olish jarayonidagi munosabatlar.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bozor munosabatlari rivojlanib borishi bilan, korxonalar moliyaviy munosabatlarining tarkibi ham yanada o‘zgarib boradi. Shuning uchun korxonalar taraqqiyoti jarayonida uning moliyaviy munosabatlari tarkibiy qismidagi o‘zgarishlarni tabiiy bir hol sifatida qarash lozim.

Korxonalar taraqqiyoti va ular moliyaviy munosabatlarini takomillashtirish o‘zaro bog‘liq muammolardandir. Mamlakatimizda korxonalarning moliya munosabatlari ham yangi zamonaviy talablar asosida rivojlanish uchun muhim turtki oldi. Shu bilan birga, moliya munosabatlari korxonalar taraqqiyotini rag‘batlantirishning muhim dastaklariga egadir. Bu narsa shu bilan bog‘liqki, mukammal taqsimot tizimining yaratilishi natijasida markazlashgan va rezerv fondlarining tashkil etilishi orqali kengaytirilgan takror ishlab chiqarish imkoniyatlarining yanada mustahkamlanishiga erishish hamda turli soliq imtiyozlarining qo‘llanilishi maqsadida korxonalar kelgusi innovatsion taraqqiyoti uchun qulay iqtisodiy sharoitlar yaratiladi.

Shunday qilib, korxonalar taraqqiyoti amaldagi moliya munosabatlari tizimining qay darajada rivojlanganligiga bevosita bog‘liq jarayondir. Bu yerdagi asosiy muammo korxonalar taraqqiyoti real darjasini va uning innovatsion rivojlanish istiqbollari talablariga mos holda moliyaviy barqarorligini yaxshilash masalalarini to‘g‘ri tashkil eta olish hamda uning ta’sirchanligini ta’minlashdadir.

Innovatsion rivojlanish va kommunikatsion texnologiyalar asri deb tavsiflanayotgan hozirgi sharoitda korxonalar moliyaviy barqarorligini oshirish vazifalarini aniqlash o‘ta muhim muammolardandir. Mazkur sharoitda korxonalar faoliyatining amaliy tajribasi yetishmasligi bilan bog‘liq ob‘ektiv sabablarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida korxonalar moliyasi deyarli o‘rganilmadi. Garchi ko‘pchilik tomonidan korporativ moliya va moliyaviy menejment asoslariining to‘g‘ri tashkil etilishi har qanday ishlab chiqarish tizimi samarali faoliyatining garovi ekanligi tan olinsada, mutaxassislar bu masalada hali yetarlicha tadqiqot olib borgayotgani yo‘q.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. Yefimova O.V. Finansoviy analiz: sovremenniy instrumentariy dlya prinyatiya ekonomiceskix resheniy. /ucheb. / O.V. Yefimova. - 5-ye izd., ispr. - M.: Omega-L, 2014. - 348s.
2. Kazakova N.A. Finansoviy analiz. /ucheb i praktikum / N.A. Kazakova. - M.: Yurayt, 2014. - 539 s.
3. Brealey R.A., Mers S.C. Principles of corporate finance. McGraw-Hill, 2003.
4. Kumri Nomozova. Organizational and economic modeling of the system of interregional industrial cooperation as a control object. Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. 2023. – p. 333-343.
5. Kumri Isoyevna Nomozova. Problems of security of economic and ecological systems in the countries of the central Asian Region. International Conference on Next Generation Wired/Wireless Networking. 2023. – p. 177-195.
6. Kumri Nomozova. Evolyusiya teorii predprinimatelskogo riska v rabotax vidayushixsy uchenix proshlogo. Peredovaya ekonomika i pedagogicheskie texnologii. 2025. – c. 581-587.
7. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik faoliyat bilan bog‘liq risklarni sug‘urta vositasida boshqarish usullari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. - 4-7 b.
8. Kumri Nomozova. Mikrostraxovanie kak innovatsionniy mexanizm upravleniya riskami malogo biznesa. Ekonomicheskoe razvitiye i analiz, 2024. - s. 338-345.
9. Qumri Nomozova. Biznes risklarini sug‘urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy turlari va ularning xususiyatlari. Moliya va bank ishi. 2024. – 44-48 b.
10. Qumri Nomozova. Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvidan o ‘tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024.
11. Qumri Nomozova. O‘zbekistonda tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug‘urtasini rivojlantirish istiqbollari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. – 7-10 b.
12. B.E.Toshmurodova Korporativ moliya strategiyasi– T.: “Iqtisod- moliya”, 2013. – 128 b.
13. Vahobov A.V., Malikov T.S. MoliY. Darslik. – T.: “Sharq”, 2010. – 804 b.
14. Van Xorn D.K. Osnovi upravleniya finansami/ D.K.Van Xorn; Per.s angl.; Gl. red. serii Y.V.Sokolov. -M: Finansi i statistika, 1996. - 800 s: il.
15. Public Finance: A Contemporary Application of Theory to Policy, Tenth Edition. David N. Hyman. 2010, 2011 South-Western, Cengage Learning
16. Malikov T., Jalilov P. Byudjet-soliq siyosati.– T.: “Akademnashr”, 2011. – 472 b.